

QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK SUV OMBORLARI VA ULARDA UCHRAYDIGAN BALIQLAR

Cho'liev O.J.¹, Ruziyev B.X.², Mulkanov Y.M.²

¹Qashqadaryo viloyati favqulotda vaziyatlar boshqarmasi,

²Qarshi davlat universiteti

bruziev@list.ru

Annotation. *There are about 10 reservoirs in Kashkadarya region, the largest of which are Pachkamar, Chimkurgan, Qamashi, Hisorak and Talimarjon reservoirs. In this chapter of the work, we found it necessary to describe the large water reservoirs in our region. There are 11 species of fish in the reservoirs of Kashkadarya region, 6 of these species are acclimatized, and 5 are local species. 4 species of acclimatized fish (*Carassius auratus gibelio*, *Ctenopharyngodon idella*, *Hypophthalmichthys molitrix*, *Stizostedion lucioperca*) were introduced for specific purposes, while 2 species (*Abramis brama*, *Channa argus*) accidentally entered the water bodies of Uzbekistan.*

O'zbekiston bir qancha katta-kichik daryolar bilan o'ralgan o'lkadir, zilol suvli ko'pdan-ko'p buloqlar va tabiiy ko'llarga boy diyordir. Keyingi davrlarda uning bag'rida Kattaqo'rg'on, Quyimozor, To'dako'l, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Tallimarjon, Degrez, Janubiy Surxon, Uchqizil, Chorvoq Tuyamo'yin, Andijon kabi suv omborlari tashkil etildi, ulkan gidrotexnik inshootlar qad ko'tardi, ko'plab kanallar va obihayot shaxobchalari barpo etildi. Bular dehqonchilikning juda muhim qon tomirlari bo'lish bilan birga baliqchilikni rivojlantirish uchun ham boy manba hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonning daryolarida, suv havzalarida hayot kechirayotgan, shuningdek tabiiy sharoitlari jihatidan yashash va ko'payish imkoniyatiga ega bo'lgan iqlimlashtirilgan baliqlarning biologiyasi va ekologiyasini o'rganish, ularning hozirgi vaqtda baliqchilik xo'jaliklarida tutgan o'rmini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatida 10 ga yaqin suv omborlari bo'lib, ularning yiriklari Pachkamar, Chimqo'rg'on, Qamashi, Hisorak va Talimarjon suv omborlaridir. Ishning ushbu bobida viloyatimizdagi yirik suv omborlariga tavsif berishni lozim deb topdik.

Pachkamar suv ombori – Qashqadaryoning kam suvli chap irmog'i G'uzor daryosida barpo etilgan yirik gidrotexnika inshooti. G'uzor tumani markazidan 15 km yuqorida joylashgan. Kattao'ra va Kichiko'ra daryolaridan to'ldiriladi. Qurilish ishlari 1964 yilda boshlanib, 1967 yilda foydalanishga topshirilgan, 1968 yil to'liq qurib bitkazilgan.

Omborning suv yuzasi uzunligi 3,9 km, kengligi 1,8 km. Suv yuzasi maydoni 12,8 km², eng katta (maksimal) chuqurligi 51m, o'rtacha chuqurligi 30 m. Suv ombori daryoning mavsumiy va qisman ko'p yillik suv rejimini tartibga soladi. To'g'onning ustki uzunligi 593 m, balandligi 68 m. Suv omborining o'ng qirg'og'ida uzunligi 198 m va maksimal balandligi 12 m bo'lgan ko'tarma damba qurilgan. Omborning o'ng sohilida suv sarfi 30 m³/s bo'lgan suv chiqargich qurilgan. Suv chiqargichning quyi qismiga 2 ta konussimon rostlagich o'rnatilgan. To'g'onning chap tomonida suv sarfi 260 m³/s (favqulodda toshqinlarda suv sarfi 480 m³/s) bo'lgan suv tashlagich Chap sohil kanali ochiq holda qurilgan.

Suv omborining qurilishi G'uzor tumanining suv ta'minotini yaxshilashda va uning iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi, ekin maydonlarini 15 ming gektarga oshirish imkonini berdi. Pachkamar suv omborida baliqchilik xo'jaligi tashkil etilgan.

Talimarjon suv ombori – Qashqadaryo viloyatidagi yirik gidrotexnika inshooti. Qarshi magistral kanali etagida barpo etilgan. Talimarjon temir yo'l stansiyasi yaqinida, Amudaryo va Qashqadaryo o'rtasida suvayirg'ich vazifasini bajaruvchi tekislikda joylashgan. 1965-1973 yillarda qurilgan. 1977 yilda qisman, 1985 yil to'liq ishga tushirilgan.

Talimarjon suv ombori Qarshi magistral kanali suvi bilan kuzgi-qishki mavsumda 6 oy davomida to'ldiriladi. Uzunligi 14 km, kengligi 5,5 km, o'rtacha chuqurligi 19,8 m, qirg'oq chizig'i uzunligi 36 km, maydoni 77,4 km², umumiy hajmi 1,53 mlrd. m³, foydali ish hajmi, 1,4 mlrd. m³. Talimarjon suv omborining asosiy inshootlari majmui 1 va 2 tuproq to'g'onlari, nasos stansiyasi, suv oqib keladigan va chiqib ketadigan kanal, drenaj, nasos stansiyasidan iborat. Suv qudratli elektr nasoslari orqali 26,6 m balandlikkacha ko'tarilib beriladi. Qarshi cho'lida o'zlashtirilgan yerlarni suv bilan ta'minlaydi. Sug'orish mavsumida omborda to'plangan suv Qarshi magistral kanaliga suv o'tkazish imkoniyati 360 m³/sek. bo'lgan suv chiqargich orqali beriladi.

Hisorak suv ombori – yirik gidrotexnika inshooti. Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryoning irmog'i bo'lgan Oqsuv daryosi o'zanida barpo etilgan. Shahrisabz tumani Miroqi shaharchasidan 1,5 km uzoqliqda joylashgan. 1983-1988 yillarda qurilgan. Umumiy hajmi 170 mln. m³, foydali hajmi 161,6 mln. m³. Tosh-tuproqli to'g'oni uzunligi 666 m, balandligi 138 m, suv yuzasi 4,2 km², suv chiqaruvchi inshootning suv o'tkazish imkoniyati 200 m³/s, suv tashlama inshootniki 130 m³/s. Hisorak suv ombori to'g'on, suv chiqarish, suv tashlama inshootlari, suv keltiruvchi va suv chiqaruvchi kanallar, drenaj tarmoqlari bilan jihozlangan.

Qamashi suv ombori – Qashqadaryo viloyatida barpo etilgan gidrotexnika inshooti. 1957 yilda Qamashi shahridan 4 km uzoqlikdagi Sho'rchasoy tabiiy botiqligini tuproq to'g'on bilan to'sib hosil qilingan. To'g'onning dastlabki balandligi 10 m, ustki qismining uzunligi 900 m, ombor atrofida ko'tarilgan marzalar bilan birgalikda 1500 m, hajmi 11 mln. m³. 1962 yilda to'g'on rekonstruksiya qilinib, 3 m ga ko'tarildi va umumiy hajmi 17,3 mln. m³ ga va foydali hajmi 16 mln. m³ ga yetkazildi. Maksimal chuqurligi 12,0 m, o'rtacha chuqurligi 6,0 m, suv sathining yuzasi 1,5 km². Suv ombori Yakkabog' daryosidan suv oluvchi Qorabog' kanali va suv sarfi 4 m³/sek. bo'lgan 6 km uzunlikdagi suv keltirish kanali orqali aprel-iyulda to'ldiriladi. Omborning suv chiqargichidan suv sarfi 4 m³/sek. bo'lgan 2,9 km uzunlikdagi kanal suv oladi. Suv ombori Qamashi tumanida 5 ming gektar ekinzorni sug'orish imkonini beradi.

Chimqo'rg'on suv ombori – Qashqadaryoning o'rta oqimida qurilgan gidrotexnika inshooti. Qashqadaryo viloyati hududida, Qarshi shahridan 60 km sharqda joylashgan.

Chimqo'rg'on suv ombori qurilishi 1958 yilda boshlangan. 1960 yildan doimiy foydalanishga topshirilgan.

To'la sig'imi 500 mln. m³, foydali sig'imi 450 mln.m³. Suvi yuzasi sathi 49,2 km², suv ombori o'zan tipida. Uzunligi 17,5 km, maksimal chuqurligi 30 m, o'rtacha chuqurligi 17,2 m.

Qashqadaryo oqimini mavsumiy tartibga solish uchun mo'ljallangan. Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Qarshi, G'uzor va Koson tumanlaridagi 188 ming gektar yerni sug'oradi.

Chimqo'rg'on suv ombori tarkibiga tuproqli to'g'on, minerali suv chiqargich, quyi betda joylashgan chap sohil (27 m³/s) va o'ng sohil (22 m³/s) bosh taqsimlagichlari kiradi. To'g'on balandligi 33 m. Minerali suv chiqargich sug'orish uchun suv berish va ayni vaqtda ortiqcha suvni chiqarib tashlash uchun mo'ljallangan (suv o'tkazish imkoniyati 350 m³/s).

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatining suv havzalarida yashayotgan baliqlar ikki katta guruhga bo'linadi.

Ularning biri – qadimdan tez oqar tog'li va tog'li bo'lmagan daryolarda mavjud o'z baliqlarimiz, ya'ni maxalliy baliqlardir. Bularning aksariyatni noto'g'ri iqlimlashtirish natijasida borgan sari kamyob bo'lib bormoqda.

Ikkinchi guruhni asosan suv omborlarida iqlimlashtirilgan kelgindi baliqlar tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati suv omborlarida baliqlarning 11 turi uchraydi (jadval).

Jadval

Qashqadaryo viloyati suv omborlarida uchraydigan baliq turlari va ularning maqomi

№	Turlar	Mansubligi	Maqomi
1.	<i>Abramis brama</i> – oqcha (лещ)	inv.	
2.	<i>Barbus brachycephalus</i> – mo'ylovli baliq	М	
3.	<i>Carassius auratus gibelio</i> – kumush tovonbaliq (карась)	int.	
4.	<i>Ctenopharyngodon idella</i> – oq amur	int.	
5.	<i>Cyprinus carpio</i> – zog'ora baliq (сазан)	М	RL
6.	<i>Hypophthalmichthys molitrix</i> – do'ng peshona	int.	
7.	<i>Stizostedion lucioperca</i> – oq sla (судак)	int.	
8.	<i>Schizothorax intermedius</i> – shirmohi (маринка)	М	
9.	<i>Varicorhynchus capoeta</i> – xramulya	М	
10.	<i>Silurus glanis</i> – laqqa (сом)	М	
11.	<i>Channa argus</i> – ilonbosh	inv.	

Izoh: **inv. (invasive)** – tasodifan kelib qolgan tur;

int. (introduced) – iqlimlashtirilgan tur;

М – maxalliy tur;

RL – 2004 IUCN Red List Threatened Species.

Qashqadaryo viloyatining suv omborlarida 11 turga mansub baliqlar tarqalgan bo'lib, bu turlarning 6 tasi iqlimlashtirilgan, 5 turi esa maxalliy turlardir. Iqlimlashtirilgan baliqlarning 4 turi (*Carassius auratus gibelio*, *Ctenopharyngodon idella*, *Hypophthalmichthys molitrix*, *Stizostedion lucioperca*) muayyan maqsadlarda introduksiya qilingan bo'lsa, 2 turi (*Abramis brama*, *Channa argus*) O'zbekiston suv havzalariga tasodifan kelib qolgan.

Maxalliy turlar orasida sazan – *Cyprinus carpio* Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Qizil ro'yxatiga kiritilgan tur hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatining suv omborlari baliqlari sistematik jihatdan Suyakli baliqlar sinfining Cypriniformes, Siluriformes, Perciformes turkumlari vakillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari // Toshkent, «O'qituvchi», 1983 y.
- Omonov A., Mirzaev U. O'zbekiston baliqlari. Toshkent, «Fan» 1992 y.
- Салихов Т.В., Камиллов Б.Г. Атаджанов А.К. Рыбы Узбекистана (определитель). - Ташкент: Chino ENK, 2001. - С.9; С.72-75.
- Камиллов Б.Г., Салихов Т.В., Альмаджид З., Тансыкбаев Н.Н. Воспроизводительная способность белого толстолобика *Hypophthalmichthys molitrix* (Val.) реки Сырдарья. – Доклады Академии наук Республики Узбекистан, 1994, 9, С.49-51.
- Kuchboev A. E. et al. Molecular phylogeny and diagnosis of species of the family Protostrongylidae from caprine hosts in Uzbekistan //Parasitology Research. – 2015. – Т. 114. – С. 1355-1364.
- Bobonazarov, G. (2024). BIOXILMA-XILLIK QISQARISHI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI. MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION, 1(01).

7. Orziyeva Y., Davronov B. MOLLUSCAN FAUNA AND ECOLOGY OF MOUNTAIN KARATEPA //INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT. – 2024. – T. 3. – №. 9. – C. 73-77.

8. kizi Norkobilova Z. B., Rakhmatullayev A. Y., ogli Boyjigitov O. D. PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 5-14.